

# SULTON JALOLIDDIN MANGUBERDINING ENG MUHIM JANGLARI

*Kenpeilov Rustem Nurlibekovich*

*O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi,  
podpolkovnik*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada buyuk ajdodimiz Jaloliddin Manguberdining mamlakat ozodligi yo'liga olib borgan eng muhim janglari haqida qisqacha yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Jaloliddin Manguberdi, mo'g'ullar, xorazmshohlar davlati, jang, taktika, qudratli imperiya.

Jaloliddin Manguberdi-on a yurt himoyachisi, jasur sarkarda va davlat arbobi, xalqimizning Spitamen, Muqanna, Najmiddin Kubro, Amir Temur singari tarixda o'chmas iz qoldirgan milliy qahramondir.

Jaloliddin Manguberdi bor-yo'g'i o'ttiz ikki yillik qisqa hayoti davomida elu yurt uchun, xalq uchun so'nmas xizmat qilishga ulgurgan ulug' ajdodimizdir.

Jaloliddin Manguberdining beqiyos jasoratini anglash uchun, avvalo, u yashagan tarixiy davr, shu davrlarning mashaqqatli va beshafqat sahifalarini o'zimizcha tasavvur qilib ko'raylik.

Chingizzon shunday bir mash'um kuch ediki, dunyodagi manman degan qancha zotlar uning qarshisida tiz cho'kib, qulluq qilib yashashga tayyor edi.

Muhammad Xorazmshoh atrofidagi ko'plab beklar ham yov qo'liga taslim bo'lishni afzal ko'rghanlarida Jaloliddin bu fikrga qarshi chiqib, o'zining beqiyos jasorati va qat'iyatini namoyon etdi. Shu paytgacha mag'lubiyatga uchramagan mo'g'ul lashkariga qarshi o'n bir yil muttasil jang qildi va g'animlarga shunday qaqshatqich zarbalar berdiki, hatto Chingizzonday makkor va beshafqat, dunyoning yarmini zabit etgan fotih ham unga tan berishga majbur bo'ldi.

Ishonchim komilki, ularning ruhi bilan charog'on xonadonlarmizda bugun voyaga yetayotgan minglab jaloliddinlar yurtimizga mehru-sadoqat bilan xizmat qilib, uning shonu-shuhratini butun dunyoga tarannum etadi.

Sulton Jaloliddin eng muhim janglaridan biri Parvon jangidir. Sulton Jaloliddinga Parvon yo'li bo'yab Chingizzonning juda katta qo'shini kelayotganligi haqida Vaxsh tarafidagi joususlik bo'linmalari o'z xabargirlarini jo'natdi. Choparlar bu qo'shin o'ga mohir va bahodir jangchilardan tuzilganligi, Chingizzon unga juda tajribali sarkardasini bosh qo'mondon qilib tayinlagani va har qanday sharoitda shu safargi jangni o'z foydasiga o'zgartirish uchun choralar ko'rgani hamda Jaloliddin va Temur Malikni tiriklayin qo'lga olish to'g'risida Chingizzon bosh qo'mondoniga ko'rsatma bergenini alohida ta'kidladilar. Bu xabarni olishi bilan Jaloliddin Manguberdi lashkarni oyoqqa turg'azdi.

Jaloliddin Manguberdi mo'g'ullarning maxsus "Jazokor" qo'shini Parvon yulidan kelayotganligini eshitib, afg'on amirlari qo'shini ittifoqchiligidagi ularning yo'lini to'sish va ularning o'zlarini o'nglab, nafasni rostlab olishlariga imkon bermay, jang maydoniga ulardan oldin yetib kelishga jazm etdi. Bir vaqtning o'zida Shiki-Xutu-Xi qo'shini qanday tezlikda, qachon yetib kelishi haqida aniq ma'lumot olib turish uchun ularga qarama-qarshi yo'nalishda bir necha guruh joususlarini shimoli-sharq hamda janubi-



g‘arb va bir qismini Fap6 tomon yo‘nalishlari bo‘ylab jo‘natdi. Ularning kelishini kuzatib yo chap, yoxud o‘ng tomondan aldamchi yo‘llardan Sulton Jaloliddin lashkarining orqa tarafga o‘tishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun nazoratni yanada kuchaytirgan edi.

Parvon dashtiga mo‘g‘ullar taxminan 3-4 soatlar ichida yetib kelishini xabargirlar ma’lum qilgach, Jaloliddin Manguberdi lashkariga maydon bo‘ylab saf olishga buyruq berdi. Lashkarni uch yirik qismiga ajratdi. Markaz, o‘ng va chap qanot bo‘ylab saf oldirdi. So‘ngra barcha sarkarda va mingboshilari bilan qisqa jang rejasini tuzdi. Afg‘on amirlariga dushman harbiy san’at usullari bo‘yicha o‘ta tajribali va hiylakorlikda tengsiz ekanligini ta’kidlab, quyidagilarni uqtirdi: „Mening buyrug‘imsiz na hujum qilish, na mening ruxsatimsiz bir qadam chekinish to‘g‘risida biror harakat bo‘lmisin. Aks holda, bu jang boy berilishidan ogohlantiraman. Uchchala afg‘on sarkarda va amirlariga qo‘siningiz oldida turib lashkaringiz bilan baralla qasam ichib, meni ishontirishingizni so‘rayman. Toki jang boshlanishidan oxiriga qadar mening ko‘nglim sizlardan to‘q bo‘lib turishi kerak. Men o‘shanda jangni ishonch bilan olib boraman va ishonch bilan qo‘sinni g‘alaba sari boshlab, g‘animlarni qirib tashlaymiz, vassalom. Barcha o‘z joyini egallasin, hammamizni xudo o‘z panohida asrasin, Inshoolloh”.

Jaloliddin Manguberdi: “Zafar yor bo‘lsin, birodarlar, oling-u oldirmanglar. Yovga o‘lim!” “Yovga o‘lim!” deya qilich va nayzalarini baland ko‘targan jangchilar sarkardaga hamohang osmonu falakka tutashgan qiyqiriqlar bilan olqishladilar sarkarda Jaloliddinni. Butun qo‘sinning ushbu so‘zlarni qayta-qayta takrorlash hayqirig‘idan maydon larzaga keldi. So‘ngra jang maydonining qulay marralari egallanib, jang tadorining oxirgi tayyorgarliklari ko‘rib bo‘lindi hamki chang-to‘zon Fap6 tomondan Parvon yo‘li bo‘ylab osmonu falakka ko‘tarildi. Bu mo‘g‘ullarning qo‘sini yaqinlashib qolganligini bildirar edi. Buni tezda xabargirlar ham tasdiqladilar. Yana 30-40 daqiqada g‘animlar lashkari shu yerga yetib kelishini tasdiqladilar.

Mo‘g‘ullar yetib kelguncha Jaloliddin Manguberdi Parvon dashtining jo‘g‘rofiy-hududiy, past-balandi va tabiiy holatini sinchiklab, sarkardalari bilan tekshirib chiqdilar. Jang maydonining qulay va katta qismini Sulton qo‘sini egallab, kichik va tor, noqulay qismini mo‘g‘ullar lashkariga qoldirdi.

1221-yilning 27-iyulida Shiki-Xutu-Xi lashkari Parvon dashti yozining issig‘i avj pallasida uzoq va jadal yo‘l bosib Parvonga yetib kelar ekan, kutilmaganda qilich va nayza tig‘lari mo‘g‘ullarning jiagar-bag‘rini yorib tashlashga shay holda tayyor turgan Sulton Jaloliddin qo‘sininga duch keldi. Ularning rejasiga ko‘ra, bu qo‘sini bilan mo‘g‘ullar G‘aznada uchrashishi kutilgan edi. Qo‘singa jangoldi nafasni rostlab dam olish vaqtini ham shahar ostonasiga belgilangandi. Mo‘g‘ullar qo‘sini tartibsiz holatda to‘xtashga majbur bo‘ldi. Sulton Jaloliddin ularning bemalol nafasni rostlab olishlariga mutlaqo imkon ham bermadi.

G‘azni yaqinidagi Parvon jangida Jaloliddin Manguberdi mo‘g‘ullar ustidan ajoyib g‘alabani qo‘lga kiritadi. Biroq jangdan so‘ng Jaloliddin Manguberdining lashkarboshilari o‘lja ustida o‘zaro janjallahish qolib oqibatda, Sayfuddin Ig‘roq, A’zam Malik va Muzaffar Maliklar Jaloliddin Manguberdi tark etganlar. Jaloliddin Manguberdining yonida faqat Aminalmulk o‘z lashkari bilan qolgan, xolos.<sup>1</sup>

Chingizzon bu qo‘sinning shu safar g‘alaba qilishiga qattiq ishonar, bunga aslo shubha qilmasdi. Shiki-Xutu-Xini harbiy safarga yo‘llash oldidan unga maxsus sovg‘a arava taqdim qildi. Arava mustahkam panjaralar bilan o‘ralgan ko‘chma qamoqxona bo‘lib, Chingizzon uni “Jazokor”ning Bosh qo‘mondoni Shiki-Xutu-Xiga taqdim qilar ekan “Xorazmshoh Jalol bilan Temur Malik ustoz-shogirdlarga keng jahonni tor qil, qolgan umrini qafasga solingen yirtqichlardek shu yerda o‘tkazishga majbur kilaman. Jang tugaganda men ularni shuning ichida ko‘rishim shart. Senga berilgan mana shu bahodirlardan tashkil topgan lashkar bu ishni bemalol uddalaydi”. Bosh qo‘mondon Shiki-Xutu-Xi ham xoqonni ishontirib: „Jangdan keyin albatta siz orziqib kutgan „aziz ikki mexmoningiz”ni qafas ichida zanjirband

<sup>1</sup> A.Nasafiy. Jaloliddin Manguberdi. T:-“Ma’naviyat”, 1998-yil.



holda sizga o‘z qo‘llarim bilan topshirgayman, xoqonim”. „Bor umidim sen va shu qo‘shindan”, deya xoqon qarorgohidan chiqib, „Jazokor” qo‘shinning Bosh qo‘mondonini kuzatib qo‘ygan edi. Shundan e’tiboran xoqon g‘alaba xabarini intiq kuta boshladi.

Shiki-Xutu-Xi qo‘shinining oldingi safi Jaloliddin Manguberdi qo‘shinida 400-500 metrlar oraliq masofa saqlagancha to‘xtadilar. Jaloliddin Manguberdi qo‘shinlari hujumga to‘la shay edi.

1221yil 28 noyabr kuni erta tongda dahshatli qiyomat-qoyim jangi boshlandi. Chingizxon yovuzlik ramzi Axriman qiyofasiga kirgan edi.

Erk uchun to‘kilgan qonlar qutlug‘dir,  
Zamin yuragiga bag‘ishlar hayot.  
Kurashib olingan shonlar ulug‘dir,  
Shonli insonlarni olqishlar hayot.

Bu Nilabdagi qaqqhatqich jang uch kun davom etdi. Bu jangda Jaloliddin Manguberdi bemisl jasorat ko‘rsatdi. Temur Malik, Jahon Toy Pahlavon, an-Nasaviy, Aminalmulk kabi ulug‘ sarkardalar u bilan yelkama-yelka jang qildilar.

### **Yoyandoz – eng maqbul mudofaa usuli**

Jaloliddin Manguberdi ham hal qiluvchi jang oldidan jahon harbiy san’ati tarixida hech bir sarkarda qo‘llamagan usulni qo‘llashga qaror qildi. Chingizxon lashkari chigirkadek maydonni to‘ldiribgina qolmay, balki qo‘shinning ancha qismi Nilab maydoniga sig‘may, zahirada o‘nlab sarkardalar jang qilish navbatini kutishga to‘g‘ri kelardi.

Jaloliddin yaxshi bilardiki, Chingizxon ochiq maydonda jangni boshlar ekan, birinchi zarba berishni kamonchilardan boshlaydi. Jaloliddin Manguberdi Chingizzxonning yoychilari zarbasidan himoyalanish uchun faqat qalqonning o‘zi kifoya qilmasligidan har bir jangchisiga shox-shabbadan to‘qilgan to‘siqni ko‘tarib, uning orqasida ikkinchi himoya vositasi qalqon bilan himoya himoyalanishi lozim edi.

Agar Jaloliddin shu himoya usulini qo‘llamasa, uning qo‘shini mo‘g‘ullar yoychilari tomonidan og‘ir talofat ko‘rib, so‘ngra Chingizzxonning asosiy zarbdor kuchi dahshatli hujumkor qo‘shin-otliq tumanlarining dastlabki zarbasidan qirib tashlanar edi. Shuning uchun Jaloliddin Manguberdi Chingizzxonning yoychi lashkarlari hujumidan mumkin qadar kam talofat ko‘rib, butun kuchini mo‘g‘ullar otliq qo‘shini hujumini qaytarishga qaratdi. Ming-minglab yoy o‘qlari yomg‘iri shox-shabba to‘sig‘iga kelib sanchildi. Jaloliddin fursat topib, bu o‘qlardan dushmanning o‘zini qirg‘in etishda foydalanishga ko‘rsatma berdi.

Sulton Xorazmshoh Manguberdi Parvon jangida mo‘g‘ullarning maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan yirik lashkariy qismlarini yarimdoira holatida joylashtirib, Shiki-Xutu-Xidek g‘oyat tajribali va mashhur qo‘mondonning tinkasini quritib, so‘ngra hal qiluvchi zarba berib, uning qo‘shinini qirib tashlagan edi. Nilab jangida yoyandoz harbiy taktika usulini yanada takomillashtirib, jahon harbiy san’at nazariyasi hamda amaliyot rivojiga buyuk sarkarda katta hissa qo‘shdi. Oradan yarim asrga yaqin vaqt o‘tgach, yuz yillik urushda Angliya qiroli bu urush taktikasini Fransiyaga qarshi qo‘llab, katta muvaffaqiyatga erishgan.

Yana bir misol: Sohibqiron Amir Temur ham 1398-1399 yillarda Hind yurishida Jaloliddin Manguberdining qudratli hind hukmdori Shamsiddin Eltutmishga qarshi jangida qo‘llagan taktikasini qo‘llaydi. “Ertangi jangda sarkarda Jaloliddin Manguberdining harb uslubini qo‘llaymiz”. Va mana shu usulni qo‘llash orqali bu jangda Sohibqiron Amir Temur g‘alabaga erishadi.

Jaloliddin Manguberdi bu usulni takomillashtirib, poyoniga yetkazar ekan, Chingizzxonning bir zarb bilan Jaloliddin Manguberdi qo‘shinini parokanda qilish va qurshab olib, birorta raqib jangchisining bu qurshovdan chiqib ketishiga imkon bermaslikni asosiy vazifa qilib qo‘ygan rejasini amalga oshirilishini yo‘qqa chiqardi.



Bu tengsiz jangda mag‘lubiyatga uchragan Jaloliddin Manguberdi 4000 jangchisi bilan Sindning o‘ng sohiliga suzib o‘tib, cho‘l ichkarisiga kirib ketdi. (Bu cho‘l hozirda ham Cho‘li Jaloliy deb ataladi).

Chingizzon Jaloliddin Manguberdining bu jasoratidan hayratda qolib, o‘z o‘g‘illariga qarab «Ota o‘g‘il mana shunday bo‘lishi zarur!» degan. Oradan bir necha kun o‘tgach, Jaloliddin Manguberdi qo‘smini soni 7 mingga yetdi. Unga Qo‘lbars bahodir, Kabkuh va Sa’diddin Ali ash-Sharabdor kabi lashkarboshilar o‘z kishilari bilan kelib qo‘schildilar. Jaloliddin Manguberdi Hindistonning notanish cho‘lida och, juldur kiyimli jangchilari bilan sargardonlikda qoldi. Uning bu holidan foydalanmoqchi bo‘lgan Shatra viloyati rana (shoh) si Jaloliddin Manguberdiga hujum qilgan. Jaloliddin Manguberdining menganlik bilan otgan kamon o‘qidan rana halok bo‘ladi, qo‘smini esa parokanda bo‘lib qochadi. Jaloliddin Manguberdi katta o‘ljani qo‘lga kiritadi.

Bu g‘alabadan Sind, Uchcha, Mo‘lton, Lohur va Peshavor hokimi Nosiriddin Qubacha (1205-27)ning Nandana va Sakundagi noibi Qamariddin Karmoniy Jaloliddin Manguberdiga o‘zini xayrixohligini izhor etib, sovg‘a-salomlar jo‘natgan. G‘iyosiddin Pirshohdan ajralib ketgan amirlardan Sanjoqonxon, elchi Pahlavon, O‘rxon, Soyircha, Tekjoruq Xonkishilar o‘z lashkarlari bilan kelib Jaloliddin Manguberdiga qo‘schildilar. Jaloliddin Manguberdi Kalor shahrini, Parosravar, Tarnuj qal’alarini qo‘lga kiritdi. Mulklarining katta qismidan ajralgan Kubacha 10 ming otliq qo‘smini hamda mamluklar sulolasidan bo‘lgan Dehli sulton Shamsuddin Eltutmishdan olgan qo‘srimcha kuch bilan Jaloliddin Manguberdiga qarshi jang qilgan, biroq mag‘lubiyatga uchragan, uning xazinasi, qurol-yarog‘lari o‘lja tushgan. 1222 yil Chingizzon Jaloliddin Manguberdi izidan To‘rbay To‘qshin va Bola no‘yonni 20 minglik qo‘smin bilan jo‘natadi. Lekin ular Mo‘ltonga qadar borib, shaharni ololmay, jazirama issiqqa dosh berolmay qaytishadi. Jaloliddin Manguberdi o‘ziga qarshi mo‘g‘ul qo‘sminlari jo‘natilgan xabarini Parosravar qal’asini olgandan so‘ng eshitgan. Jaloliddin Manguberdi Mo‘lton tomon yo‘l olib Kubacha mulklaridan Uchcha, Sadusan, Xatisor, Deval va Damrillarni qamal qiladi, qo‘smini uchun tuyalar zarurligi tufayli Gujarat viloyati markazi Nahrvalga Xosxon boshchiligidida qo‘smin jo‘natadi. Shamsuddin Eltutmish Jaloliddin Manguberdi ustiga katta qo‘smin (30ming otliq, 100ming piyoda, 300ta fil) tortadi. Jaloliddin Manguberdi mardonavarlik bilan raqibga qarshi chiqadi. Jaloliddin Manguberdining O‘zbek Toy Jahon Pahlavon qo‘mondonligi ostidagi ilg‘ori Eltutmish ilg‘ori bilan to‘qnashib raqibidan ustun keladi. Eltutmish Jaloliddin Manguberdi huzuriga elchisini yuborib sulk so‘raydi.

Jaloliddin Manguberdi Hindistonda o‘z nomidan kumush va mis tangalar zarb qiladi, unga tobe hind mulklarida uning nomi xutbaga qo‘sib o‘qilgan. Biroq vaziyat murakkablashib bormoqda edi. Eltutmish, Kubacha, shuningdek, Hindistonning boshqa viloyat hokimlari o‘zaro til biriktirib Jaloliddin Manguberdiga qarshi ittifoq tuzmoqchi ekanliklari ayon bo‘lib qoldi. Jaloliddin Manguberdining ikki lashkarboshi Yazidak pahlavon va Sunqurjiq Toysilar xiyonat qilib Eltutmish tomoniga o‘tganlar. Keyin vaziyatdan qutulish uchun Jaloliddin Manguberdi harbiy kengash chaqirgan. Amirlarning ko‘philigi Iroq tomon yurish qilib, uni G‘iyosiddin Pirshohdan tortib olishni taklif qiladi. Iroqda siyosiy parokandalik hukm surardi. Iroq tomon ketishga qaror qilindi. Jaloliddin Manguberdi o‘zining Hindistonda zabit etgan mulklariga O‘zbek Toy Jahon Pahlavonni, G‘ur va G‘azni viloyatlariga Hasan Qarluqni noib sifatida qoldirib, Iroqqa yo‘l olgan. Cho‘lu biyobonlarni kesib o‘tishda Jaloliddin Manguberdining ko‘p jangchilari nobud bo‘lgan, nihoyat u 4 ming jangchisi bilan Kirmonga yetib kelgan. G‘iyosiddin Pirshohning Kirmondagi noibii Baroq hojib Jaloliddin Manguberdiga tobelik izhor qiladi. Shundan so‘ng Jaloliddin Manguberdi Fors viloyati markazi Sherozga kelgan. Fors hokimi otabek Sa‘d ibn Zangiy va Yazd hokimi otabek Alouddavla ibn To‘g‘onshoh unga tobelik bildirishadi. Jaloliddin Manguberdi Isfahonga kelganda aholi uni katta tantana bilan kutib oladi, qo‘smini qurol-asлаha bilan ta’minlanadi. Bu hol G‘iyosiddin Pirshohga yoqmaydi, u akasiga qarshi 30 ming otliq qo‘smin bilan yo‘lga chiqadi. Biroq Jaloliddin Manguberdi unga sovg‘a-salomlar bilan miroxo‘r Odekni elchi sifatida jo‘natgan va o‘zaro nizoni tinchlik bilan hal etgan. Qo‘smin boshliqlari Jaloliddin Manguberdi tomoniga



o‘tgan. 1225 yil Jaloliddin Manguberdi Ozarbayjonga yurish qiladi. So‘ng Bog‘dodga qarshi yurishga hozirlik ko‘radi. Xalifa Nosirga elchi jo‘natib, mo‘g‘ullarga qarshi birlashishga chaqirdi. Bunga javoban Xalifa Jaloliddin Manguberdiga qarshi o‘zining mamluki amir Jaloliddin Qushtemir boshliq 20 minglik qo‘sishin jo‘natdi. Basra yaqinidagi jangda xalifa qo‘sishinlari tor-mor keltirildi. Xalifa Bog‘dod atrofida 12 kun turgach, Ozarbayjon tomon ketadi. Ozarbayjon va Arron otabegi O‘zbek ichkilik, maishatga berilib davlat ishlarini o‘z holiga tashlab qo‘ygan edi, davlatni amalda uning xotini Malika xotun boshqaqar edi. 1225 yil mayda Jaloliddin Manguberdi Marog‘a shahrini jangsiz qo‘lga kiritadi. Damashq, Erbil hokimlari u ittifoq tuzishga rozi bo‘ladilar. Otabek O‘zbek Tabrizni tashlab Ganjaga, so‘ng Alinjo qal’asiga qochib o‘sha yerda vafot etadi. Jaloliddin Manguberdi Malika xotunga uylanadi. Tabrizda bir necha kun turgandan so‘ng o‘z qo‘sishinini Gruziya tomon boshlaydi. 1225 yil avgustda Garni qal’asi yaqinida gurjilarning Ivane Mxargrdzeli boshliq 60 minglik qo‘sishinini tor-mor keltiradi va Tiflisiga qarab yuradi. Gruziya malikasi Rusudana Kutaisiga ko‘chib o‘tgan. Jaloliddin Manguberdi Dvin, Lori shaharlarini egallaydi, Surmari shahri hokimlari o‘z tobekliklarini bildirishgan.

1227 yil sentabrda Isfahondan 30 chaqirim sharqdagi Sin qishlog‘i yaqinida Jaloliddin Manguberdi mo‘g‘ullarning Taynol no‘yon boshliq qo‘sishinini zabit etgan. Taynol no‘yon Jaloliddin Manguberdi haqida: «Zamonasining haqiqiy bahodiri ekan, o‘z tengqurlarining sarvari ekan», degan. Jaloliddin Manguberdining Ko‘niya sultoni Alouddin Kayqubod, Jazira hokimi al-Malik al-Ashraf Muzaffariddin Muso, Damashq hokimi al-Malik al-Muazzam Sharafiddin Iso va Misr hokimi al-Malik al-Komil Muhammadga nomalar yozib, ularni mo‘g‘ullarga qarshi kurashish yo‘lida birlashtirish yo‘lidagi xattiharakatlari behuda ketdi. Ustiga ustak Alouddin Kayqubod muholif kuchlarini Jaloliddin Manguberdiga qarshi birlashtirishga muvaffaq bo‘ldi. 1230 yil 10 avgusda Arzinjon yaqinidagi jangda Jaloliddin Manguberdi kuchlari mag‘lubiyatga uchradi. Jaloliddin Manguberdining kuchsizlanganidan foydalangan mo‘g‘ullar katta qo‘sish bilan Ozarbayjonga bostirib kirib Marog‘a, Tabrizni egallab (1231 y.) Jaloliddin Manguberdini ta’qib etishgan. Mayofariqin viloyatdagagi qishloqlaridan birida mo‘g‘ullar tungi hujum natijasida Jaloliddin Manguberdining oz sonli qo‘sishinini tor-mor keltirdilar, Jaloliddin Manguberdini o‘zi esa ta’qibdan qutulib Kurdiston tog‘larida chiqib ketgan. Bu yerda qaroqchi kurdlar qo‘liga asir tushib, fojiali ravishda halok bo‘lgan.

Jaloliddin Manguberdi haqida uning shaxsiy kotibi, tarixchi an-Nasaviy shunday yozadi: «Jaloliddin Manguberdi qarachadan kelgan, o‘rta bo‘yli, turk lafzli odam edi. Fors tilini ham yaxshi bilardi. Uning botirligiga kelganda shuni aytish kerakki, sulton arslonlar orasidagi eng kuchli sher edi. bir so‘zli, gina saqlamaydigan, ochiq ko‘ngil, to‘g‘ri so‘z odam edi. U jiddiy shaxs edi, hech qachon kulmasdi. Juda nari borsa jilmayib qo‘yardi. U adolasizliklarni yomon ko‘rardi. Jaloliddin o‘ta qat’iyatli, nihoyatda irodali, murakkab vaziyatlarda, taqdirning qaltis sinovlarida o‘zini yo‘qotib qo‘ymaydigan favqulodda mard va botir sarkarda edi».

O‘zbekiston hukumati Jaloliddin Manguberdining mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi kurashda ko‘rsatgan mislsiz jasorati, vatanga va o‘z xalqiga sadoqat va cheksiz muhabbatini qadrlash va uning porloq ruhini adabiylashtirish maqsadida «Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligini nishonlash haqida» qaror qabul qildi (1998 y.). Qarorga ko‘ra, uning yurti Xorazmda Jaloliddin Manguberdiga haykal o‘rnatildi, yirik ko‘cha, maydon, jamoa korxonalariga uning nomi qo‘yildi. Jaloliddin Manguberdi haqida videofilm, doston, p’esa va badiiy adabiyotlar yaratilgan. «Jaloliddin Manguberdi» ordeni ta’sis etilgan (2000 y. 30 avgust).

Asrlar davomida yaratilib, xalqimizning ma‘naviyatini oshirib kelayotgan ulug‘ ma‘naviy merosimiz, dinimiz, urf-odatlarimiz bosqinchilar tomonidan yondirildi, kuli ko‘kka sovurildi. Tarixiy obidalarimiz yakson etildi. Minglab insonlar qul qilindi.

Ammo, xalqini tinchligi, yurt ozodligi yo‘lida tinmay kurashgan mard o‘g‘lonlarimiz bu jaholatga qarshi tinimsiz kurashdilar, qarshilik ko‘rsatdilar. Sulton Jaloliddin Manguberdi, sarkarda Temur malik, Jahon



Toy Pahlavon, Shayxul Valitarosh Najmiddin Kubro va yana ko‘plab bahodirlarimizni ko‘rsatib o‘tishimiz mumkin.

Vatanimiz tarixining shonli sahifalarini mana shunday ulug‘ sarkarda bobolarimizning faoliyati va jang san’atlari bezab turadi.

Buyuk sarkarda, harbiy jang olib borishda beqiyos taktika va strategiyalar qiroli Jaloliddin Manguberdining nomi qalblarda mangu saqlanib qoladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston tarixi. I qism. Toshkent, 1999-yil.
2. A.Nasafiy. Jaloliddin Manguberdi. T:-“Ma’naviyat”, 1998-yil.
3. Vatan tarixi. Sh.Karimov. Shamsuddinov. 1994-yil.
4. Ma’naviyat yulduzları. Toshkent, 2001-yil.
5. Bo‘riboy Ahmedov Tarixdan saboqlar. Toshkent, 1994-yil.
6. Hamid Ziyoyev “O‘zbekiston mustaqilligi uchun kurashganlarning tarixi” :T.-2001-yil.
7. Sadriddin Salim Buxoriy “Buyuk Xorazmiylar”. Toshkent, 1993-yil.
8. Najmiddin Komilov “Najmiddin Kubro”, Toshkent, 1995-yil.
9. Tolibjonovich, M. T. (2021). The Constitution is a Legal Guarantee for the Development of the Country and the Well-Being of Society. International Journal of Human Computing Studies, 3(2), 105-109.
10. Отабоев, А. (2023). ЯПОНИЯДА ДАВЛАТ ВА ФУҚАРОЛИК ЖАМИЯТИ ИНСТИТУЛАРИНИНГ ЎЗАРО МУЛОҚОТИ ТАЖРИБАСИ. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 26(1), 126-131.
11. Najimov, M. (2019). IMPROVEMENT OF NORMATIVE CREATIVITY IS AN IMPORTANT ASPECT OF STATE LEGAL REFORM. Review of law sciences, 3(2), 7.
12. Ibragimov, M. A. (2023). Translation of Structures with Social and Grammatical Gender in the English Language (Based on Feature Film Scripts). In Sustainable Development Risks and Risk Management: A Systemic View from the Positions of Economics and Law (pp. 549-553). Cham: Springer International Publishing.
13. Botirovich, I. B. (2023). ABOUT THE LOCATION OF THE TAJIK POPULATION IN THE KOKAND KHANATE.
14. Nasriddinovich, A. A. (2021, July). PROSPECTIVE DIRECTIONS OF CIVIL SOCIETY IN UZBEKISTAN. In E-Conference Globe (pp. 234-237).

